International Scientific and Practical Conference Samarkand Institute of Economics and Service
Vol. 1 Issue 1 | pp. 340-343 **| ISSN:** XXXX-XXXX
Available online @ https://globalconf.net/index.php/samisi

Article

Theoretical Basis of the Organizational and Economic Mechanism of the Service Sector in the Conditions of Transition to the Digital Economy

Boboqulov S.B*[1] R.A.Abduazizov[2]

1. Associate Professor of the Samarkand Institute of Economics and Service, (PhD).
2. Trainee Assistant of the Samarkand Institute of Economics and Service
Correspondance: ferdu_www@mail.ru

Abstract: This article investigates the economic essence, content, and theoretical foundations of the service sector in the context of the transition to a digital economy. The role of the service sector in the economy, the factors influencing its development, and the processes associated with the integration of digital technologies into the services market are highlighted. The economic significance of using digital platforms, information and communication technologies, big data, and cloud technologies in the activities of service entities is also substantiated.

Keywords: digital economy, service sector, digital transformation, services market, digital platforms, innovation, economic mechanism, information and communication technologies.

Citation: Boboqulov S. B & Abduazizov, R. A., Theoretical Basis of the Organizational and Economic Mechanism of the Service Sector in the Conditions of Transition to the Digital Economy. International Scientific and Practical Conference Samarkand Institute of Economics and Service 2026, 1(1), 340-343.

Received: 12th Oct 2026
Revised: 26th Oct 2026
Accepted: 30th Oct 2026
Published: 22th Nov 2026

Copyright: © 2026 by the authors. Submitted for open access publication under the terms and conditions of the Creative Commons Attribution (CC BY) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/)

1. Introduction

Hozirgi davrda jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan tarkibiy o‘zgarishlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda iqtisodiy munosabatlarning globallashuvi, raqamli texnologiyalarning ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlariga keng joriy etilishi xizmat ko‘rsatish sohasining iqtisodiy taraqqiyotdagi ahamiyatini tubdan oshirmoqda. An’anaviy iqtisodiy tizimda xizmat ko‘rsatish sohasi ko‘pincha moddiy ishlab chiqarishga qo‘shimcha yoki uni to‘ldiruvchi faoliyat turi sifatida qaralgan bo‘lsa, zamonaviy iqtisodiyotda ushbu soha yalpi ichki mahsulotni shakllantirish, aholi bandligini ta’minlash, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, investitsiyalarni jalb etish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishning muhim omiliga aylanmoqda[1].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Raqamli iqtisodiyotga o’tish sharoitida sohasining dastlabki nazariy asoslari klassik iqtisodiy maktab vakillari Adam Smit va Jan Batist Seyning ilmiy qarashlarida o‘z aksini topgan. Jumladan, Adam Smit o‘zining “Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to‘g‘risida tadqiqot” asarida mehnat taqsimoti, mehnat unumdorligi va iqtisodiy boylikning shakllanish mexanizmlarini tadqiq etgan[2]. Olimning unumli va unumsiz mehnatga oid qarashlari xizmat ko‘rsatish faoliyatining iqtisodiy mazmunini tarixiy jihatdan anglashda muhim nazariy ahamiyatga ega. Biroq uning yondashuvida moddiy mahsulot ishlab chiqarishga ustuvor ahamiyat berilganligi sababli zamonaviy xizmatlar iqtisodiyotining barcha xususiyatlarini to‘liq izohlab bera olmaydi.

Jan Batist Sey iqtisodiy faoliyatning asosiy mazmunini foydalilik yaratish bilan bog‘lagan. Uning fikricha, ishlab chiqarish jarayoni faqat moddiy ne’matlarni yaratish bilan chegaralanmaydi, balki inson ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi foydali

natijalarni shakllantirishni ham qamrab oladi. Mazkur yondashuv xizmatlarni iqtisodiy qiymat yaratuvchi faoliyat sifatida baholash uchun muhim nazariy asos hisoblanadi.

Xizmat koʻrsatish sohasining iqtisodiyot tarkibidagi oʻrnini oʻrganishda Allan Fisher, Kolin Klark va Jan Furastye tomonidan ishlab chiqilgan uch sektorli iqtisodiy rivojlanish nazariyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu nazariyada iqtisodiyot birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi sektorlarga ajratilib, iqtisodiy taraqqiyot davomida xizmat koʻrsatish sohasining ulushi ortib borishi asoslab berilgan. Xususan, Kolin Klarkning "The Conditions of Economic Progress" asarida iqtisodiyotning tarmoq tarkibi, bandlik va ishlab chiqarish munosabatlaridagi tarkibiy oʻzgarishlar tahlil qilingan. Ushbu ilmiy yondashuv xizmat koʻrsatish sohasining milliy iqtisodiyotdagi oʻrni va iqtisodiy oʻsishga ta'sirini oʻrganishda metodologik asos boʻlib xizmat qiladi[3].

Xizmat koʻrsatish sohasining zamonaviy nazariy rivojlanishida Stiven Vargo va Robert Lush tomonidan ilgari surilgan "Service-Dominant Logic" konsepsiyasi muhim oʻrin egallaydi. Mualliflarning 2004-yilda "Journal of Marketing" jurnalida chop etilgan "Evolving to a New Dominant Logic for Marketing" nomli maqolasida iqtisodiy qiymat yaratish jarayonida xizmatlarning ustuvorligi va iste'molchilarning faol ishtiroki asoslab berilgan. Ushbu konsepsiyaga muvofiq, qiymat faqat xizmat koʻrsatuvchi tomonidan yaratilmaydi, balki korxona va iste'molchi oʻrtasidagi oʻzaro hamkorlik jarayonida shakllanadi. Mazkur yondashuv raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron platformalar, interaktiv xizmatlar va mijozlar bilan individual munosabatlarni tashkil etishning nazariy asoslarini tushuntirish imkonini beradi[4].

M.Q.Pardaev, Q.J.Mirzaev, O.M.Pardaev "Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti" nomli Oʻquv qoʻllanmasida xizmatlar sohasi iqtisodiyotining nazariy masalalari, sohani tarmoqlar boʻyicha rivojlantirishning asosiy yoʻnalishlari va istiqbollari, har bir tarmoqning oʻziga xos xususiyatlari hamda ushbu soha faoliyatini baholash va hisobga olish yoʻllari qarab chiqilgan. Shuningdek, kommunal xizmat koʻrsatish sohasi faoliyati mazmuni va ularni hisobga olish yoʻllari tahlil etilgan[5].

2. Materials and Methods

Mazkur muammoni tadqiqotining bir qator usullardan foydalanish asosida oʻrganilgan, jumladan, asosan xorijiy tajribalarni monografik tahlillar natijalarini monografik tadqiqot, analiz va sintez, tizimli tahlil kabi iqtisodiy usullar asosida oʻrganilib, raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat koʻrsatish sohasining iqtisodiy mohiyati, rivojlanish qonuniyatlari va tashkiliy-iqtisodiy xususiyatlarini oʻrganishga qaratilgan ilmiy yondashuvlarini ochib berishda ahamiyat kasb etgan.

3. Results and Discussion

14 Xizmat koʻrsatish sohasi iqtisodiy tizimning murakkab va koʻp tarkibli qismi boʻlib, u aholining shaxsiy ehtiyojlarini qondirish, korxonalar faoliyatini ta'minlash, davlat boshqaruvi vazifalarini bajarish hamda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi turli faoliyat turlarini qamrab oladi. Ushbu soha tarkibiga savdo, transport, aloqa, turizm, mehmonxona xoʻjaligi, moliya, sugʻurta, ta'lim, sogʻliqni saqlash, axborot texnologiyalari, konsalting, maishiy xizmatlar va boshqa koʻplab yoʻnalishlar kiradi.

Xizmat koʻrsatish sohasining iqtisodiy mohiyatini anglash uchun, avvalo, "xizmat" tushunchasining mazmunini aniqlashtirish lozim. Iqtisodiy adabiyotlarda xizmat, odatda, iste'molchining muayyan ehtiyojini qondirishga yoʻnaltirilgan, iqtisodiy qiymat yaratadigan va koʻpincha moddiy buyum shaklida namoyon boʻlmaydigan faoliyat yoki faoliyat natijasi sifatida talqin qilinadi. Biroq zamonaviy iqtisodiy munosabatlar sharoitida xizmatni faqat nomoddiy faoliyat bilan cheklash yetarli emas. Chunki koʻplab xizmatlar moddiy mahsulotlar bilan uzviy bogʻliq holda yaratiladi va iste'molchiga taqdim etiladi. Masalan, mehmonxona xizmatlarida moddiy infratuzilma va jihozlar muhim ahamiyat kasb etadi, logistika xizmatlarida transport vositalari va omborlar asosiy resurslardan

hisoblanadi. Shu bilan birga, mazkur faoliyat turlarining iqtisodiy qiymati faqat moddiy resurslar bilan belgilanmaydi[6].

Xizmatning sifati, bajarilish tezligi, qulayligi, ishonchliligi, iste'molchining talablariga mosligi va undan foydalanish davomida yuzaga keladigan tajriba ham muhim iqtisodiy ahamiyatga ega. Demak, xizmat ko'rsatish faoliyatining mohiyatini faqat moddiy yoki nomoddiy natijaga qarab emas, balki iste'molchi ehtiyojini qondirish, qiymat yaratish, resurslardan foydalanish va iqtisodiy manfaatlarni shakllantirish jarayonlari orqali tushuntirish maqsadga muvofiqdir.

Xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiy tizimda bir nechta muhim vazifalarni bajaradi.	
Birinchidan	u aholining kundalik va strategik ehtiyojlarini qondiradi. Ta'lim, sog'liqni saqlash, transport, aloqa va maishiy xizmatlar insonlarning hayot sifati va ijtimoiy farovonligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.
Ikkinchidan	xizmatlar ishlab chiqarish faoliyatining uzluksizligini ta'minlaydi. Moliya, sug'urta, logistika, marketing, axborot texnologiyalari va konsalting xizmatlarisiz zamonaviy korxonalarning samarali faoliyat yuritishi murakkablashadi.
Uchinchidan	mazkur soha yangi ish o'rinlarini yaratish va tadbirkorlik subyektlari faoliyatini kengaytirishga yordam beradi.
To'rtinchidan	xizmatlar eksporti orqali mamlakatga xorijiy valyuta tushumlarini jalb qilish, xalqaro iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash va milliy iqtisodiyotning tashqi bozorlardagi ishtirokini kengaytirish imkoniyati yuzaga keladi.

Xizmat ko'rsatish sohasining yana bir muhim jihati uning boshqa iqtisodiy tarmoqlar bilan o'zaro bog'liqligidir. Sanoat korxonalarining raqobatbardoshligi transport-logistika, moliya, marketing, muhandislik va raqamli xizmatlar samaradorligiga bog'liq. Qishloq xo'jaligida esa mahsulotni saqlash, qayta ishlash, tashish, sug'urtalash, sotish va bozorga olib chiqish bilan bog'liq xizmatlar ishlab chiqarishning yakuniy iqtisodiy natijalariga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli xizmat ko'rsatish sohasini iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridan ajratilgan mustaqil faoliyat sifatida emas, balki qiymat yaratishning umumiy tizimida ishtirok etuvchi muhim tarkibiy qism sifatida o'rganish lozim[7].

Raqamli iqtisodiyot sharoitida ushbu o'zaro bog'liqlik yanada kuchayadi. Chunki korxonalar o'rtasidagi axborot almashinuvi, elektron shartnomalar, raqamli to'lovlar, masofaviy maslahatlar va avtomatlashtirilgan logistika tizimlari turli iqtisodiy faoliyat turlarini yagona axborot makonida birlashtirish imkonini beradi. Natijada xizmat ko'rsatish sohasi nafaqat mustaqil iqtisodiy faoliyatni amalga oshiradi, balki boshqa tarmoqlarning raqamli transformatsiyasini ta'minlovchi infratuzilmaviy vazifani ham bajaradi.

4. Conclusion

Yuqorida keltirilgan fikrlar, ma'lumotlardan kelib chiqib mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasi faoliyati samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish maqsadida quyidagi taklif va tavsiyalarni ishlab chiqdik. Xususan:

- xizmat ko'rsatish sohalari faoliyatini respublika misqyosida liberlashtirish siyosatini yanada takomillashtirish;
- xizmat ko'rsatish sifatini yuksaltirish maqsadida samaradorligi yuqori bo'lgan xizmat ko'rsatish tarmoqlari tajribasini boshqa xizmat turlariga targ'ib qilish;
- xizmat ko'rsatish sifatini yanada yuksaltirish maqsadida tizim faoliyatini raqamlashtirish ishlarini yanada jadallashtirish orqali uning tashkiliy-iqtisodiy richaklari samaradorligini oshirish;
- respublika va viloyat kesimida xizmat ko'rsatish korxonalarida faoliyat olib borayotgan ishchi va xosimlarni malaka darajasi, qayta tayyorlash va xizmat

nomenklaturasidan kelib chiqib mutaxassislar tayyorlash yo'l xaritasini ishlab chiqish hamda amaliyotga jalb etish;

- xizmat ko'rsatish sohalari moliyaviy faoliyati, ularga investitsiyalarni jalb qilish ishlarini raqamlashtirish orqali boshqarish, nazorat qilish va moliyaviy operatsiyalarni kuzatish tizimini hududlar va respublika miqyosida shakllantirish kabi takliflarni amaliyotga jalb qilish orqali mamlakatimizda xizmat ko'rsatish soahasini yaimda ulushini yanada oshirish, aholi turmush-farovonligini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda mamlakatimizni iqdisodiy o'sishiga imkon yaratib berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston—2030" Strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli Farmoni. Toshkent sh. www.lex.uz
2. Smith A. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. London, 1776.
3. Fourastié J. Le Grand Espoir du XXe siècle. – Paris, 1949.
4. Bell D. The Coming of Post-Industrial Society. – New York: Basic Books, 1973.
5. Kotler P., Keller K. L. Marketing Management. – Pearson Education.
6. Porter M. E. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. – New York: Free Press, 1985.
7. World Bank. World Development Report: Digital Dividends. – Washington, DC, 2016.
8. Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan
9. http: //https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/raqamli-iqtisodiyot